

O'g'iljon ABDUVALIYEVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Eron-afg'on filologiyasi kafedrası
tadqiqotchisi

PASHTU TILIDA "SIFAT + SIFAT" HAMDA "SON + SON" MODELI BILAN YASALGAN KOPULYATIV QO'SHMA SO'ZLAR TAHLILI

Pashtu tilida kopulyativ qo'shma so'zlarni yasashda eng kam uchraydigan model bu sifat + sifat modeli bo'lib¹, ushbu modelning qo'shilishidan ham ot so'z turkumi, ham sifat so'z turkumi yasalishi mumkin:

A) kopulyativ elementsiz sifat + sifat qo'shilib ot yasaydi:

shakal, chiyabo'ri	sur landay	سورلندی
kamalak	šna zarg'una	شنه زرغونه
boshqoli o'simlik nomi	spin wəjay	سپین وری

Yuqorida keltirilgan misollarda masalan سپین "oq" va وری "och" (qorinning to'q emasligi) so'zlarining qo'shilishidan² spin wəjay boshqoli o'simlikning nomi ifodalanayapti.

Shuningdek, سورلندی "chiyabo'ri" so'zi sifat + sifat modelida bo'lib, سور "qizil", لندی "kalta" so'zlarining birikishidan ot so'z turkumi hosil bo'ldi:

¹ Калинина З. М. Очерки лексикологии современного пушту. – Москва, 1972. – С.78.

² М.Г. Асланов., Пушту-русский словарь, М., 1985. – С. 498.

سورلندی د سپیو تی لرونکو ژویو څخه یو غوښه خوړونکی
ځناور دي چې په شمالي افریقا او منځنی آسیا کې ژوند کوي.³

[sur landay də spio tɔy larunko ʃwio cxa yaw
gwaʃa xwarunkay dzanwar di ʃe pə ʃmali afrikā
aw mandzanay āsiyā ke ʃwand kawī]

“Chiyabo‘ri - Shimoliy Afrika va Markaziy
Osiyoda yashovchi itlarning nasl-nasabidan kelib
chiqqan yirtqich hayvon turi.”

د ډيلي مېل بریتانیايي ورځپاڼې د راپور له مخې، د
هواپېژندنې یوه ماهر ادعا وکړه چې دا له ۳۲ کلونو وروسته یو
ریکارډ دی چې ۹ ساعته شنه زرغونه دوام کوي.⁴

[də ɖeili mel britāniyāyi wradzpāni də rapor lə
mæxe, də hawā peʃandne yawa māhər iddaā wukra
ʃe da lə 23 kaluno wruʃta yaw rikord dey ʃe 9 sāata
ʃna zarguna dawām kawī]

“Britaniyaning «Daily Mail» gazetasiga ko‘ra,
bir meteorologiya mutaxassisi bu 23yildan so‘ng
bo‘layotgan 9 soat davom etgan **kamalak**ning
rekordi ekanini aytdi”.

Ushbu misolda “yashil” زرغونه “ko‘k” va شنه
so‘zlarining birikishidan “kamalak” so‘zi kelib
chiqdi.

B) sifat bilan sifat qo‘shilib yangi ot yasaydi
va ikkinchi bo‘lagi birinchisi bilan [u] kopulyativ
elementi yordamida birikadi:

C)

ishning mohiyati	tor-u-bor	تور و بور ¹
---------------------	-----------	------------------------

[u] و “qora” va “qo‘ng‘ir” sifatleri
kopulyativ elementi yordamida birikib, masalaning
“mohiyati, mazmuni” ma‘nosini keltirib chiqardi.

D) sifat bilan sifat qo‘shilib sifat yasaydi va
bunda kopulyativ element ishtirok etmaydi:

katta-kichik	loy wārə	لوی و اړه
baland-pašt, o‘ydim-chuqur	lwara-dzəwara	لوړه خوره

په کابل—جلال آباد کې لوړې خورې لارې زیاتې دي.

[pə kābul-jalālobād ke lware- dzəware lare
ziyāti di]

“Kobul–Jalolobodda o‘ydim-chuqur yo‘llar
ko‘p”.

Ushbu gapda “baland”, خوره “pašt”
bo‘lib, ikala sifatdan sifat yasaldi.

E) Aralash turdagi sifat modeli. Bunda
sifat+ot modeli bevosita bog‘lovchisiz qo‘shilib
sifat yasaydi.

hurmatli, muhtaram	spin robay	سپین روبی
halol, roštgo‘y	spinmāxay	سپین مخی
qo‘pol, qo‘rs, surbet	spinstərgay	سپین سترگی
iffatli, pokiza	spinlaməne	سپین لمنی ²

Yuqorida keltirilgan misollarda masalan
سپین “hurmatli, muhtaram” so‘zida “oq” va
سپین “qultum, yutum, ho‘plam” so‘zlari o‘zaro
birikib, sifat yasadi.

د عوامي نیشنل گوند نه په ویستلو سپین روبی سیاست وال
لطیف افریدی وايي «ازاد لطیف زنده باد».⁵

[də awāmi nešenəl gāwənd na pə weštlo **spin
robay** siyāsət wal latif afridi wayi āzād zəndaābād]

“Avomi milliy partiyasidan haydalayotgan
hurmatli/muhtaram siyosatchi Latif Afridi «ozod
Latif Zindobod» deydi”.

Shuningdek, ikki muštaqil bir- biriga
hamohang bo‘lgan so‘zlarning birikishi natijasida:
[weʃay teʃay] “och nahor” (so‘zma-so‘z:
“och” + “tashna”) so‘zlari qofiyalanib kelib ikkala
komponenti ham ma‘no berib, kopulyativ qo‘shma
so‘z holiga kelib qolgan.

دولس بجې شوی وېړی تېرى دادی د پادشاه موټروان راغی
او ویی ویل: تیل می اخیستی دی.⁶

[dwolas baje šway **weʃay teʃay** dādi də
pādšāh moʃarwan rāḡey aw wu ye wayl: tel me
ahištay dey]

³ pashto.wikipedia.org > wiki ویکیپېډیا

⁴ http://www.taand.com/ تاند - شنه زرغونه - تاند

⁵ www.voadeewanews.com > lateef-afridi

⁶ څیرنمل ژواک. پرونی هنداره، کابل، ۱۳۵۷ م. کال. ص. ۱۶

“Soat o‘n ikki bo‘lgan edi, **och** qolgandik, podshohning haydovchisi kelib unga dedi: yonilg‘i oldim”.

Pashtu tilida “son+son” shaklidagi kopulyativ qo‘shma so‘zlar son so‘z turkumida o‘nbirdan yuzga qadar raqamlar bilan ifodalanadigan ikki xonali sonlar bog‘lovchi elementsiz kompozitlar shaklida yasaladi. Ularning komponentlari qat‘iy ravishda dastlab birliklar, keyin o‘nliklar o‘zaro qo‘shilishi orqali yuzaga keladi⁷. Masalan:

لس, besh, پنځه (o‘n besh) [pendzəlas] پنځلس - o‘n)

yetti, اووه (o‘ttiz yetti) [uwwə derš] اووه دېرش - o‘ttiz)

uch, درې (qirq uch) [dre calwešt] درې څلوېښت - qirq)

ellik besh, پنځه [pendzə pendzos] پنځه پنځوس - besh, ellik)

ikki, دوه (to‘qson ikki) [dwa nwi] دوه نوي - to‘qson)

د مخ په سېت کې پنځه ويشت کلن ځوانان ناست وو.⁸
[də məx pə siṭ ke **pendzə wišt** kalan dzwanan našt wu]

“Oldi o‘rindiqda **yigirma besh** yoshli yigitlar o‘tirdilar”.

مونږ په سرای کې ننوتلو، پر يوه لويه تونگاچه چې څوارلس چناره پر را گرځيدلى دى كېښستلو.⁹

[munj pə sarāy ke nənawatəlo, pər yawa loya tungača če **cwarlas** čənāra pər rā gərdzedlay di kṣenaštlo]

“Biz saroyga kirdik, **o‘n to‘rtta** chinor o‘rab turgan katta bir supa uštiga o‘tirdik”.

د كريم جان سترگي دغسې وچي كلکي پکې پاتې شوى،
بنځه رښتيا هم ځوانه وه، د همدې پنځه ويشت شپږ ويشت کالو،
په څېره هم بده نه وه.¹⁰

[də karimjān štergi daḡase wuče kələke pəke pāte šwe, šədzə rištiyā ham dzwana wa, də hamde **pendzə wišt špaṭ wišt** kalo, pə cera ham bada na wu]

“Karimjonning ko‘zlari ayolning bilagiga tushdi, ayol haqiqatan ham yosh edi, taxminan yigirma besh yigirma olti yoshda, ko‘rinishi ham yomon emas edi”.

دولس بجي شوى وړى تېرى دادى د پادشاه موټروان راغى
او ويى ويل: تېل مې اخيستی دى.¹¹

[**dwolas** baje šway weṭay teṭay dādi də pādšāh moṭarwan rāḡey aw wu ye wayl: tel me ahistay dey]

“Soat **o‘n ikki** bo‘lgan edi, och qolgandik, podshohning haydovchisi kelib unga dedi: yonilg‘i oldim”.

Tahlilni quyidagicha xulosalash mumkin:

1. Hech qanday bog‘lovchisiz sifat + sifat qo‘shilib ot yasali shaklidan atab qo‘yilgan nomlar ya‘ni atoqli otlar (سپين وړى) va turdosh otlar (شنه زرغونه) hosil bo‘lishi aniqlandi.

2. [u] kopulyativ elementi yordamida sifat bilan sifat qo‘shilib yangi ot yasaydi (تور و بور).

3. Sifat bilan sifat qo‘shilib sifat yasaydi va bunda kopulyativ element ishtirok etmaydi (لور).

4. Keltirilgan misollarda aralash turdagi sifat modeli, ya‘ni sifat+ot modeli bevosita bog‘lovchisiz qo‘shilib sifat yasali shi ham aniqlandi.

5. Ikki mustaqil bir-biriga hamohang bo‘lgan so‘zlar o‘zaro birikib (وړى تېرى) [weṭay teṭay] “och nahor” (so‘zma-so‘z: “och” + “tashna”) ikkala komponenti ham ma‘no berib, kopulyativ qo‘shma so‘z holiga kelib qolganligi aniqlandi.

6. Son + son modelida birinchi bo‘lak ikkinchisi bilan bog‘lovchi elementsiz birikib, o‘nbirdan yuzga qadar raqamlarni ifodalab, kopulyativ qo‘shma so‘zlarni hosil qildi.

⁷ Калинина З. М. Очерки лексикологии современного пушту. —Москва, 1972. —С.78.

⁸ اکبر بری. د سپوږمۍ سرتګه، کابل، ۲۰۰۴م کال. ص-۶

⁹ څيړنمل ژواک. پروني هنداره، کابل، ۱۳۵۷م کال. ص-۱۸

¹⁰ اکبر بری. د سپوږمۍ سرتګه، کابل، ۲۰۰۴م کال. ص-۳۱

¹¹ څيړنمل ژواک. پروني هنداره، کابل، ۱۳۵۷م کال. ص-۱۶